

KORRUPSIYANING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA SALBIY TA'SIRI

Boymurzayev Isomiddin Azizbek o‘g‘li

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyaning jamiyat rivojiga ta’siri, davlatlarning bu illatga qarshi kurashish usullari va korrupsiyani kamaytirish yo‘llari yoritib berilgan. Asosan shu soha bo‘yicha dunyoda yetuk natijalarga erisha olgan davlatlarning natijalari, samarali mexanizmlari ta’kidlab o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Korrupsiya, antikorrupsiya, reyting, ratifikatsiya, ochiqlik, oshkorlik, poraxo ‘rlik, qonunsizlik.

Davlatlarning rivojlanishiga bevosita ta’sir qiluvchi omillar orasida korrupsiya yuqori o‘rinda turadi. Bu omillar davlatlarning geografik joylashuvi, tabiiy resurslar mavjud ekanligi va boshqalar. Agar yuqorida sanab o‘tilgan omillar davlatlarda mavjud bo‘lsa ham o‘sha davlat korrupsiya botqog‘iga botgan bo‘lsa, bu davlat rivojlanishda ortda qolib ketaveradi. Bu shuni ko‘rsatadiki, korrupsiya masalasi juda ham dolzarb muammo hisoblanadi.

Korrupsiya bu – shaxsning o‘z mansab va lavozimidan shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanishidir. Korrupsiya muammosiga bugungi kunda deyarli barcha davlatlar duch kelmoqda. Bu o‘z navbatida korrupsiya masalasiga jiddiy e’tibor qaratish lozim ekanligidan dalolat beradi. Bu illatga qarshi davlatlarning kurashish usullari qanday?

Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan treningda AQSHning “Boston Globe” jurnali bosh muharriri Reychel Koyn qo‘shma shtatlarning korrupsiyaga qarshi qanday usullar yordamida kurash olib borishi haqida shunday degan. Qo‘shma shtatlar korrupsiyaga qarshi ochiqlik va oshkorlik tamoyillari asosida kurashadi. Bunga ko‘ra davlat xizmatchilarining faoliyati va daromadlari jamoatchilik uchun ochiq bo‘ladi va o‘z navbatida mansabdor shaxslar faoliyati jurnalistlarning

doimiy e'tiborida bo'ladi. Korrupsiyaga qarshi kurashning muvaffaqiyatli misollaridan biri sifatida tarixdagi Sovet Rossiyasining 1917– yilgi inqilobdan keyingi dastlabki o'n yilligini olishimiz mumkin. O'sha yillarda sovet hukmron elitasi quyidagi tamoyillar asosida korrupsiyaning oldini olishga harakat qilgan:

Komunistik g'oyaga sodiqlik;

Jamiyatda tenglik hukmron bo'lishligi;

Davlat boshqaruvidagi qilmishlari va xatolari uchun qattiq javobgarlik choralarini amalga oshirish orqali kurash olib borgan.

Sovetlar hukumronligi davrida SSSR tarkibiga kiruvchi Gruziya eng korrupsiyalashgan respublikalardan biri edi. Hatto o'sha paytlarda "Gruziyada sovet hokimiyati yo'q" degan jumla ham ishatilgan. Bu paytlarda Gruziyada yo'l – patrul xizmati, Oliy ta'lim tizimi, bojxona, sud – huquq va energetika tizimida poraxo'rlik yuqori darajada kuchayib ketgan edi. "Atirgullar inqilobi" (2003 – yil noyabr) davridan boshlab Eduard Shevardnadze davrida korrupsiyaga qarshi kurashish kompaniyalari tuzilib harakatlar olib borildi. Biroq natija kutilganidek bo'lmadi. Mamlakatda korrupsiyaning gullab yashnashi va iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida yuz minglab gruzinlar Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Gretsiya, Isroil, Germaniya, AQSH va boshqa davlatlarga chiqib ketishga majbur bo'lishdi.

2004-yil yanvar oyida bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida Mixail Saakashvili prezidentlik lozimini egalladi. Saakashvili boshchiligidagi yangi hukumat korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi "nol bardoshlilik" siyosatini olib bordi. Islohotlar doirasida vazirliklar va davlat xizmatchilarining soni qisqartirildi, professional kadrlar yangilandi va yoshartirildi. Davlat xizmatchilarining oylik maoshlari sezilarli darajada oshirildi. Qolaversa bu davrda mansabdor shaxslar mol-mulklarining qonuniy ekanligini isbotlay olmasa ularning mol-mulklarini musodara qilishni nazarda tutuvchi qonun hujjatlari qabul qilindi. Korrupsiyaga qarshi kurash doirasida olib borilgan yuqoridagi amaliy ishlar natijasida Gruziyada korruption holatlar kamaydi. Hozirda Gruziya

korrupsiyaning yo‘qligi, iqtisodiy erkinlik va rivojlanish darajasiga ko‘ra, jahon reytingida yuqori o‘rinni egallab turibdi.

Singapur davlati ham bir vaqtlar Buyuk Britaniya imperiyasi mustamlakasi bo‘lgan. Bu paytda mamlakat korrupsiya botqog‘iga tamomila botgan edi. 1965-yilda mustaqillikka erishgan paytida ham Singapurda qonunsizlik va korrupsiya yuqori nuqtasiga yetgan edi. O‘sha paytdagi bosh vazir Li Kuan Yuning mohirona boshqaruvi tufayli XX asr oxiriga borib Singapur korrupsiya keskin kamaygan va rivojlangan mamlakatga aylandi.

“Agar biz boshqarayotgan davlat hokimiyati ko‘pchilikning hayotini yaxshilash emas, kamchilikning cho‘ntagini qappaytirish payida bo‘lsa, ahvolimiz chatoq bo‘ladi” degan edi Li Kuan Yu. Hukumat rahbarlari korrupsiyani ildizi bilan qo‘porib tashlamasa, mamlakatning kelajagi yo‘q ekanligini tushunib yetgan edi. Bu esa korrupsiya masalasida qat’iy va izchil choralar tizimini qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda Singapur korrupsion harakatlar sodir etish imkoniyatlarini qisqartirish yo‘lidan bordi. Xususan, mansabdor shaxslarning harakatlari tartibga solindi, davlat xizmatchilarining yuqori odob – axloq qoidalariga rioya qilishlari ustidan kuchli nazorat o‘rnatildi. Korrupsion holatlarni tergov qilish buyrosi faoliyati yo‘lga qo‘yilib unga maxsus vakolatlar berildi. Bir vaqtning o‘zida korrupsion harakatlar uchun jinoiy jazo choralar kuchaytirildi, sud tizimining mustaqilligi ta’minlandi, sudyalarning maoshlari sezilarli darajada oshirildi. Davlat xizmatini amalga oshirayotgan mas’uliyatli xodimlarning maoshlari xususiy korporatsiyalardagi top menajerlarning maoshlari bilan teng darajaga ko‘paytirildi. Qolaversa 1989 va 1994-yillarda yuqori martabali davlat xizmatchilarining ish haqlarini qayta ko‘rib chiqish natijasida oylik maoshlar shu darajada oshirildiki, Singapur bu borada dunyoda 1-o‘ringa chiqib oldi. Bugungi kunda Singapur korrupsiya ko‘lamining kamligi, iqtisodiy erkinlik va taraqqiyot darjasini bo‘yicha jahon reytingida yetakchi o‘rinda bormoqda. Atiga 4 mln. aholi istiqomat qiladigan Singapur tajribasi siyosiy iroda samarali antikorrupsion qonunchilik va pulga sotilmas mustaqil

agentlik evaziga bir necha o‘n yillarda korrupsiyani juda past darajaga tushirish mumkin ekanligini namoyish qildi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi ham korrupsiyaga qarshi kurashishda chet el tajribasidan samarali foydalanib kelmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi normativ – huquqiy shartnomalarni va konvensiyalarni ratifikatsiya qilmoqda. Jumladan, 2003-yil 9-dekabr sanasida BMT tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida qabul qilingan konvensiya O‘zbekiston tomonidan 2008-yilda ratifikatsiya qilingan. Shu bilan birga milliy qonunchiligidizda ham korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘plab normativ – huquqiy hujjatlar, farmonlar va qarorlar qabul qilinmoqda.

Xususan,

2017-yil

3-yanvar sanasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan imzolangan “Korrupsiyaga qarshi kurashish” to‘g‘risidagi qonunning imzolanishi mamlakatimiz tarixidagi korruptsiga qarshi kurash borasida tashlangan muhim qadam bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Qolaversa korruption harakatlarning oldini olish maqsadida 2023-yil 27-noyabr sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-200-son Farmoni tastiqlandi. Bundan tashqari korruption holatlarni tezkor aniqlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili Ombudsmanning 10-96-ishonch raqami va virtual qabulxonasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Olib borilgan shu va boshqa ishlar natijasida O‘zbekiston yildan-yilga jahon reytingida yuqori o‘rinni egallab kelmoqda. Transparency International tashkilotining 2023-yil uchun e’lon qilgan reytingida O‘zbekiston 180 ta mamlakat orasidan 121- o‘rinni egalladi. O‘zbekiston 2022-yil uchun e’lon qilingan reytingda 126- o‘rinni egallagan edi. Xulosa, qilib aytadigan bo‘lsak bu illatga qarshi kurashni eng avvalo oiladan, maktabdan, jamiyatdan boshlashligimiz lozim. Agar ota-onas farzandalariga halol luqma yedirsa, to‘g‘ri tarbiya bersa, maktabda o‘qituvchilar bu bolalarga korrupsiya haqida atroflicha ma’lumot berishsa va uning axloqiy, huquqiy oqibatlari haqida tushuntirishsa o‘ylaymanki bu bolalar kelajakda korruption holatlar sodir etmaydi. O‘z navbatida davlat xizmatchilarining maoshlari sezilarli darajada

oshirilishligi, korruption harakatlar uchun jinoiy jazo choralarining kuchaytirilishligi hamda qonun ustuvorligining taminlanishligi korrupsiyaning kamyishligiga sabab bo‘ladi deb o‘layman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.lex.uz>
2. <https://kun.uz>
3. <https://www.ombudsman.uz>
4. <https://www.amerikaovozi.com>
5. Akbarjonovich M. A. AN ANALYTICAL APPROACH TO THE ELIMINATION OF CORRUPTION //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – T. 11. – №. 4. – C. 2045-2047.